

**BOYSUNDAGI TESHTOSH G'ORIDA OLIB BORILGAN
ARXEOLGIK TADQIQOTLAR**

Termiz davlat pedagogika instituti pedagogika va ijtmoy.

fanlar fakulteti tarix talim yo'nlashi 2 kurs 24-03guruh

Talabasi Davlatova Zebanda

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston hududida joylashgan va qadimgi maskanlardan bir sifatida tanilgan Machay G'ori haqida so'z yuritiladi. Machay G'ori o'zining tabiiy-geografik joylashuvi, diniy va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turuvchi muhim yodgorliklardan biridir. Maqolada g'orning nomlanishiga doir etimologik tushunchalar, xalq e'tiqodidagi o'rni, tabiat bilan uyg'unligi va arxeologik tadqiqotlar uchun ahamiyati yoritib beradi. Shuningdek, Machay G'orining tarixiy ildizlari, me'moriy tuzilishi, saqlanish holati va hozirgi kundagi roli tahlil etiladi. Ushbu maqola tarix, arxeologiya, va etnografiya sohalariga qiziquvchilar, shuningdek, madaniy merosni o'rganayotgan uchun foydali bo'lishi mumkin. Teshtosh g'orida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotlar jarayonida g'orning o'rta paleolit davriga mansub yodgorlik ekani aniqlangan bu hududda qadimgi insonlarning yashash faoliyati, xo'jalik yuritish usullari va madaniy taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan tosh qurollar, hayvon suyaklari hamda stratigrafik qatlamlar asosida mintaqaning ibtidoiy jamiyat tarixidagi o'rni aniqlab berilgan. Teshtosh g'ori Markaziy Osiyoda qadimgi insoniyat tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba hisobladi.*

***Kalit so'zlar.** arxeologik tadqiqotlar, tosh qurollar, ibtidoiy jamiyat, arxeologik qazishmalar, madaniy qatlamlar, ibtidoiy odamlar manzilgohi, suyak qoldiqlari, tarixiy-arxeologik yodgorlik*

***Abstract:** This article discusses the Machay Cave, which is located in the territory of Uzbekistan and is known as one of the ancient human settlements.*

Machay Cave is one of the significant monuments distinguished by its natural and geographical location as well as its religious and historical importance. The article highlights etymological interpretations related to the name of the cave, its role in folk beliefs, its harmony with nature, and its significance for archaeological research. In addition, the historical roots of Machay Cave, its architectural structure, state of preservation, and its role in the present day are analyzed.

The results of archaeological research conducted in the Teshik-Tash Cave are scientifically analyzed. During the research process, it was determined that the cave is a monument dating back to the Middle Paleolithic period. The study sheds light on the lifestyle of ancient humans in this area, their economic activities, and stages of cultural development. Based on stone tools, animal bones, and stratigraphic layers discovered during archaeological excavations, the role of the region in the history of primitive society has been identified. Teshik-Tash Cave is considered an important scientific source for studying the ancient history of humankind in Central Asia.

***Аннотация:** В данной статье рассматривается пещера Мачай, расположенная на территории Узбекистана и известная как одно из древнейших мест обитания человека. Пещера Мачай является одним из значимых памятников, отличающихся своим природно-географическим положением, а также религиозным и историческим значением. В статье освещаются этимологические трактовки названия пещеры, её место в народных верованиях, гармония с природной средой и значение для археологических исследований. Кроме того, анализируются исторические корни пещеры Мачай, её архитектурное строение, состояние сохранности и роль в современный период.*

Результаты археологических исследований, проведённых в пещере Тешик-Таш, анализируются на научной основе. В ходе исследований было установлено, что пещера относится к памятникам среднего палеолита. В работе раскрываются особенности жизнедеятельности древних людей, их

хозяйственная деятельность и этапы культурного развития. На основе каменных орудий труда, костей животных и стратиграфических слоёв, обнаруженных в ходе археологических раскопок, определено место региона в истории первобытного общества. Пещера Тешик-Таш считается важным научным источником для изучения древней истории человечества в Центральной Азии.

KIRISH.

Qadimgi madaniyat markazi bo'lgan Surxondaryo vohasi jahon fani va ilmiy tadqiqotlarida o'z etborini va o'z o'zini topgan. Boysun tumanida joylashgan machay qishlog'ida Teshtosh g'ori Markaziy Osiyodagi eng muhim ibtidoiy odamlar manzilgohlaridan biri hisoblanadi. Teshtosh g'oridan topilgan arxeologik topilmalardi. Ushbu g'or ilk bor 20 asrning 1938–1939-yillarda taniqli arxeolog olim A.P. Okladnikov tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan. neandertal odamlarning asosiy mashg'uloti ovchilik va termachilik bo'lganini ko'rsatadi. Qazishmalar davomida tog' echkisi, va yovvoyi qo'y, bug'u, ot, yovvoyi qoramol (tur) hamda ayrim yirtqich hayvonlar suyak qoldiqlari aniqlangan. Ushbu hayvon turlari tog'li va tog' oldi hududlariga xos bo'lib, Teshtosh g'ori atrofida o'sha davrda sovuq va quruq iqlim sharoiti hukmron bo'lganini ko'rsatadi boshqa hayvonlarga tegishli suyak qoldiqlari aniqlangan. bundan tashqari g'or ichida gulxan izlari toshdan qilingan o'chog'ning o'rni tosh va suyaklardan yasalgan mehnat qurollari Bu holat neandertallar atrof-muhit sharoitiga moslashgan holda yashaganini va jamoa bo'lib ov qilish ko'nikmalariga ega bo'lganini tasdiqlaydi. . Tadqiqotlar natijasida Teshtosh g'ori o'rta paleolit davriga mansub bo'lib, mustye (musele) madaniyatiga oid neandertal odamlar makoni ekani aniqlangan. Arxeologik qazishmalar jarayonida g'ordan eng qadimgi dafn marosimlaridan biri aniqlangan bo'lib, neandertal bolasining suyak qoldiqlari topilgan. Bu topilma nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo hududida antropologiya fanining rivojida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Topilgan suyak qoldiqlari qadimgi odamlarning dafn marosimlari va diniy tasavvurlari mavjud

bo'lganidan dalolat beradi.

Arxeologik Arxeologik topilmalar orasida toshdan yasalgan mehnat qurollari, hayvon suyaklari hamda gulxan izlari aniqlangan bo'lib, bu g'or uzoq vaqt davomida yashash uchun qulay maskan bo'lganini isbotlaydi. Topilmalar mustye madaniyatining hududiy xususiyatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Teshiktosh g'orining zamonaviy tadqiqotlardagi ahamiyati

Bugungi kunda Teshiktosh g'ori xalqaro miqyosda ilmiy qiziqish uyg'otayotgan yodgorliklardan biri sanaladi. Ushbu maskan orqali neandertal odamlarning antropologik tuzilishi, yashash sharoiti va evolyutsion rivojlanish bosqichlari chuqur tahlil qilinmoqda. Topilmalar ibtidoiy jamiyatda dastlabki diniy tasavvurlar va marosimlarning mavjud bo'lganini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Teshiktosh g'ori O'zbekistonning boy tarixiy merosining muhim qismi bo'lib, uni o'rganish va asrab-avaylash yosh avlodda tarixiy ong va milliy g'ururni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yodgorlik qadimgi insoniyat taraqqiyoti bosqichlarini yoritib beruvchi muhim ilmiy manba sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu topilma nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo hududida paleoantropologiya fanining rivojida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Topilgan suyak qoldiqlari qadimgi odamlarning dafn marosimlari va diniy tasavvurlari mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Machay g'ori mezolit, ya'ni

o'rta tosh davrining yirik yodgorligi bo'lib, Boysun tog'i etaklaridagi Machay soyining yuqorisida joylashgan. Machay g'orida ovchilar va baliqchilar jamoasi yashagan, Ushbu yodgorlik 1938–1941-yillarda A.P.Okladnikov tomondan topilgan G.V. Parfyonov tomonidan ochib o'rganildi. 1937-yilda arxeolog A.P.Okladnikov muste davriga oid ikkita qatlamni ochib ilmiy izlanishlar olib bordi. Madaniy qatalm 5 ta qatlamdan iborat Joylashuvi va kashf etilishi

Teshiktosh g'ori Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan bo'lib, 1938-yilda A. P. Okladnikov tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Davriy mansubligi

G'or O'rta paleolit davriga mansub bo'lib, bu yerda neandertal odamlari yashaganini tasdiqlovchi qatlamlar aniqlangan.

Antropologik topilma

G'ordan 8–9 yoshli neandertal bolaga tegishli kalla suyagi topilgan bo'lib, u Markaziy Osiyodagi eng muhim paleoantropologik topilmalardan biridir.

Faunistik qoldiqlar

Qazishmalar davomida tog' echkisi, bug'u, yovvoyi qo'y va boshqa hayvonlarning suyak qoldiqlari topilgan, bu neandertallarning ovchilik bilan shug'ullanganini ko'rsatadi.

Madaniy va marosimiy ahamiyati

Bola qoldiqlari atrofidan topilgan tog' echkisi shoxlari neandertallarda dafn marosimi va ramziy tafakkur mavjud bo'lganini isbotlaydi. Arxeolog O' Islomov 1970–1971-yillarda Machay g'orini o'rganib, undan topilgan tosh va suyakdan yasalgan qurollar mezolit davriga oid ekanligini isbot qiddi. Mezolit bosqichining eng muhim manzilgohdaridan hisoblangan Machay g'ori o'rta tosh davrining mil. avv. VII–VI ming-yilliklariga oid bo'lib, bu manzilgoh Yuqori Machay va quyi Machay qishloqlari oralarida joylashgan. Arxeologik qazuv ishlari natijasida bu yerdan juda ko'plab turli shakllarda toshdan yasalgan ov qurollari, tosh pichoqlar, shuningdek, suyakdan yasalgan bigiz, igna va ko'plab miqsorda hayvon suyaklari hamda inson suyaklari topib o'rganildi. Antropolog olim T. Xo'jaevning fikriga ko'ra, Machay g'orida yashagan odamlar antropologik jihatdan yevropoid irqiga mansubdir. Machay g'orida yashagan ibtidoiy odamlar, asosan, o'zlashtiruvchi xo'jalikning ovchilik va termachilik mashg'ulotlari bilan shug'ullanganlar. Qolaversa, shu davrda yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish jarayoni ham aynan muste davrida sodir bo'lib, Machay g'oridan topilgan suyak qoldiqlari ham bu fikrni to'liq isbotlaydi. Teshiqto'sh g'oridan aniqlangan neandertal bola bosh suyagi o'zining noyoblighi va ilmiy ahamiyati bilan antropolog olimlar orasida katta qiziqish uyg'otgan. Ushbu antropologik topilmani o'rganishda mashhur mutaxassis olimlar — G. F. Debes, M. M. Gerasimov, M. D. Gremyatskiy hamda V. A. Alekseevlar faol ishtirok etgan bo'lib, ular mazkur topilmaning ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilinishiga katta hissa qo'shganlar.

Olimlar tomonidan olib borilgan antropologik tadqiqotlar natijasida

Teshiqtoşdan topilgan kalla suyagi neandertal bola shaxsiga tegishli ekanligi aniqlandi. Rekonstruksiya va kraniologik tahlillar shuni ko'rsatdiki, bosh suyagining umumiy hajmi taxminan 1450 sm³ ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich neandertal odamlarga xos bo'lgan yuqori miya sig'imi mavjudligini tasdiqlaydi va ularning intellektual salohiyati zamonaviy insonnikiga yaqin bo'lganini ko'rsatadi.

G. F. Debes va M. M. Gerasimov tomonidan amalga oshirilgan morfologik va rekonstruktiv tadqiqotlar asosida bosh suyagining shakli, yuz tuzilishi hamda suyak qalinligi chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, M. M. Gerasimovning yuzni qayta tiklash metodikasi yordamida neandertal bolaning tashqi qiyofasi ilmiy asosda tiklangan. Ushbu rekonstruksiya neandertal odamlarga xos bo'lgan past peshona, keng yuz qismi va rivojlangan jag' tuzilishini yaqqol namoyon etadi.

M. D. Gremyatskiy va V. A. Alekseevlar tomonidan olib borilgan kraniologik taqqoşlash ishlari natijasida Teshiqtoş neandertalining irqiy mansubligi masalasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mazkur neandertal bola yevropa va Old Osiyo (G'arbiy Osiyo) neandertallari guruhiga mansub bo'lib, bu holat neandertallar arealining Markaziy Osiyo hududigacha keng yoyilganini tasdiqlaydi.

Ushbu ilmiy xulosalar Teshiqtoş topilmasining faqat mahalliy emas, balki umumjahon ahamiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Chunki u neandertal odamlari biologik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan keng hududlarda yashaganini va ularning antropologik xususiyatlari o'zaro uyg'unlikda rivojlanganini isbotlaydi. Shu tariqa, Teshiqtoş neandertal bola bosh suyagi O'rta paleolit davri antropologiyasi, irqiy shakllanish jarayonlari hamda inson evolyutsiyasini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida baholanadi. qizig'i, bu yodgorlik o'sha davr kishilarining suyak qoldikdari asosida insoniyatning antropologik qiyofasini va hayvonot dunyosini o'rganishda bebaho manba hisoblanadi. Bosh suyagi O'rta paleolit davriga mansub bo'lib, taxminan 8–9 yoshli neandertal bolaga tegishli ekanligi aniqlangan.

Topilma dastlab parchalangan holatda bo'lib, u 150 dan ortiq mayda suyak bo'laklaridan iborat edi. Ilmiy rekonstruksiya jarayonida ushbu bo'laklar sinchkovlik bilan o'rganilib, bosh suyagi to'liq tiklangan. Tiklangan bosh

suyagining morfologik ko'rsatkichlari neandertal odamlarga xos bo'lgan jismoniy tuzilishni yaqqol aks ettiradi. Jumladan, bosh qutisining keng va nisbatan past shaklda bo'lishi, suyaklarning qalinligi hamda yuz qismining rivojlanganligi neandertal antropologik belgilarini tasdiqlaydi.

Rekonstruksiya qilingan bosh suyagining o'lchamlari quyidagicha: og'irligi taxminan 7,75 funtni tashkil etadi, kengligi 5,5 dyuym (15,97 sm), uzunligi 6 dyuym (15,24 sm), balandligi esa 19,65 sm ga teng. Ushbu o'lchamlar neandertal bolalarning jismoniy rivojlanish darajasi va ularning anatomik xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Teshiqtoş bosh suyagi nafaqat antropologik, balki madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Chunki bola qoldiqlari atrofidan tog' echkisi shoxlarining topilishi neandertal odamlar orasida marosimiy dafn an'analari mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Bu holat esa O'rta paleolit davrida inson tafakkuri, diniy qarashlar va ijtimoiy munosabatlarning muayyan darajada rivojlanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Teshiqtoş bosh suyagi O'rta Osiyo paleolit davri antropologiyasini o'rganishda asosiy manbalardan biri bo'lib, neandertal odamlarning biologik va madaniy taraqqiyot darajasini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.g'ordan ko'plab tog'

echkisi, katta va kichik shoxli hayvon suyaklari topilib o'rganildi

Teshiqtoş g'ori Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi Zovtalashgansoy darasida, dengiz sathidan taxminan 1500 metr balandlikda joylashgan. G'orning nomi uning shiftida tabiiy hosil bo'lgan teshik bilan bog'liq. G'orga kirish qismi shimoli-sharq tomonga qaragan bo'lib, balandligi taxminan 7 metr, eni 20 metr, uzunligi esa 21 metrni tashkil etadi. G'orning umumiy maydoni 300 kvadrat metr bo'lib, shundan 100 kvadrat metrga yaqin qismi neandertallarning yashash faoliyati bilan bog'liq arxeologik materiallarga boy madaniy qatlamlardan iborat. Teshiqtoş g'oridan topilgan arxeologik topilmalar neandertal odamlarning asosiy mashg'uloti ovchilik va termachilik bo'lganini ko'rsatadi. Qazishmalar davomida tog' echkisi, bug'u, yovvoyi qo'y va boshqa hayvonlarga tegishli suyak qoldiqlari aniqlangan. Bu holat neandertallar atrof-muhit sharoitiga moslashgan holda

yashaganini va jamoa bo'lib ov qilish ko'nikmalariga ega bo'lganini tasdiqlaydi. Ov jarayonida ishlatilgan qurollar ularning tafakkuri va mehnat faoliyati rivojlanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Teshtosh g'orida topilgan tosh qurollar mustye madaniyatiga xos bo'lib, qirg'ichlar, uchli qurollar, pichoqlar va kesgichlardan iborat. Ushbu qurollar yovvoyi hayvonlarni ovlash, terini shilish hamda kundalik ehtiyojlar uchun ishlatilgan. Topilmalar stratigrafik qatlamlar asosida o'rganilib, ularning turli davrlarga mansubligi aniqlangan. Bu esa Teshtosh g'orining uzoq vaqt davomida ibtidoiy odamlar tomonidan foydalanilgan barqaror manzilgoh bo'lganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Bu g'ordan tosh qurollar, qirg'ichlar, paykonlar, plastinkalar hamda yovvoyi hayvonlarning suyaklari chiqib, o'rganilgan. Ular orasida bug'u, tog' echkisi, to'ng'iz, jayron, g'or sheri, arxar va boshqa hayvonlarga oid suyaklar bor. Shuningdek, gulxan o'rinlari, kul va ko'mir qoldiqlari aniqlangan. Olimlarning farazlariga ko'ra, g'orda yashagan odamlar miloddan 120–40 ming yil muqaddam istiqomat qilgan bo'lib, bu muste davrining birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu g'orda istiqomat qilgan ibtidoiy odamlar mehnat qurollari yordamida hayvonlarni ovlab tirikchilik o'tkazganlar. Topilmalar o'sha davrning eng boy kolleksiyalaridan birini tashkil qiladi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Boysundagi Teshiqtoosh g'ori O'rta Osiyo paleolit davri tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu yodgorlikdan topilgan arxeologik va antropologik topilmalar neandertal odamlar Markaziy Osiyo hududida yashaganini ilmiy jihatdan isbotlab berdi. Ayniqsa, 8–9 yoshli neandertal bolaga tegishli kalla suyagining aniqlanishi mintaqa antropologiyasi tarixida alohida o'rin egallaydi.

Teshiqtoosh g'oridan topilgan hayvon suyak qoldiqlari, tosh qurollar hamda madaniy qatlamlar neandertal odamlarning ovchilik bilan shug'ullangani, tabiiy muhitga moslashgan holda yashaganini ko'rsatadi. Bola qoldiqlari atrofidan topilgan tog' echkisi shoxlari esa ularning dafn marosimlariga ega bo'lganini va ramziy tafakkuri shakllanganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, antropolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Teshiqtoş neandertalining yevropa va Old Osiyo guruhlariga yaqin ekanini ko'rsatib, neandertallar tarqalish hududi ancha keng bo'lganini isbotladi. Bu holat inson evolyutsiyasi va irqiy shakllanish jarayonlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Umuman olganda, Teshiqtoş g'ori O'zbekiston hududidagi eng muhim paleolit yodgorliklaridan biri bo'lib, insoniyat tarixining ilk bosqichlarini o'rganishda beqiyos ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.S.Tursunov E.Qobilov.T.Pardayev B Murtazoev Surxondaryo tarx ko'z'gusida Toshkent 2001 5 -b
- 2.Q.Pajabov B.Qandov I Shoyimardonov. O'zbekiston tarixning muhim sanalar. Toshkent 2012 15 b
- 3.Z Xolboyev A Alimov O'zbekiston arxeologik yodgorliklar 2019 19 20 b
- 4.Q.J Saydullayev O'rta Osiyo arxeologiyasi 1990 3 -b
- 5.A.P.Okladnikov Teshtosh 1949. 25 26 bet
- 6.A.Asqarov O'zbekiston tarixi 1994 17-18 b
- 7.Yokibova Dilaram Surxondaryo tarxi 2022 14-16 b
8. .neandertal qoldiqlari 2002-08-16 yildagi nusxlari
9. Rasulov B Machay g'ori haida afsona va haqiqatlar Tarixiy yodgorlik jurnali 2021 №3
- 10.ZiyoNET